

Noyob kasblar

Shokolad degustatori – bu tatib ko‘riladigan mahsulot haqida barcha ma‘lumotni: uning tarkibi, rangi, ta‘mi, ishlab chiqarilgan mamlakati, yaroqlilik muddati va ishlab chiqarish texnologiyasini biladigan mutaxassis. Ular pishloq, shokolad, choy, qahva, qandolatchilik va boshqa ko‘plab turdagi mahsulotlarni tatib ko‘rib, mahsulot haqida o‘z xulosalarini aytadilar.

Yerdagi eng noyob kasb faqat bir nechta odamlargagina tegishli. Bu mutaxassislar pingvinlarning (ayniqsa, Antarktida qutb stansiyalarida) ko‘chish joylarida ishlaydi. Ishning mohiyati juda oddiy – samolyotlarning uchish va qo‘nish vaqtlarida pingvinlar yiqilib tushadilar. Ularning vazifasi pingvinlarni turg‘izib qo‘yish va salomatligini nazorat qilishdan iborat.

**Dunyoda minglab kasblar bor.
Ularning hammasi kerakli va qiziqarlidir.**





1. Matn nima haqida ekan?
2. Turli kasblarning shakllanishiga nima yoki kim ta'sir qiladi?
3. Dunyoda yo'qolib borayotgan kasblar haqida nima deya olasiz?
4. Zamonaviy kasblar ro'yxatiga qanday kasblarni kiritasiz?
5. Ayting-chi, zamonaviy kasblarning paydo bo'lishiga nima sabab bo'lgan deb hisoblaysiz?
6. Nima uchun ayrim kasblar noyob kasblar sirasiga kiradi?
7. "Barcha kasblarni odamlar yaratadi", deganda nimani tushundingiz?



Fikrlar mazmuni rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.

1. Kasb – kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi. U ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat va tajribani talab etadi.
2. Bizning tezkor va o'zgaruvchan dunyomizda juda kam kasblar mavjud. Tanlov juda murakkab.
3. Har bir sohaga kirib kelayotgan axborot texnologiyalari kasblarning ham o'zgarishiga, yangilanishiga sabab bo'lmoqda.
4. Yerdagi eng noyob kasblardan biri bu – matn teruvchilik kasbi.

**Yodda tuting!**

Kasb-hunar egasi bo'lish uchun yoshlikdan qunt bilan o'qish lozim. Bilmaganingizni so'rab bilishdan va o'rganishdan uyalmang.



Har bir ustunga 3 tadan misol ayting.

**Yo'qolgan
kasblar**

**Noyob
kasblar**

**Zamonaviy
kasblar**



Yashiringan so'zlarni o'qing.

MIHANGIC DIZAYNER DASTURCHI

Ular nima ish qilishini ayting. Bu kasblarni egallash uchun inson qanday bilimlarga ega bo'lishi kerak?



“Mening tanlagan kasbim” mavzusida matn tuzing.